



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-iyul

374-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isida” 2024-yil 17-apreldagi 213-son qarori ijrosi haqida” 343-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isida” 2024-yil 17-apreldagi 213-son qarori ijrosi haqida” 343-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini bajarilishini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘isida” 2024-yil 17-apreldagi 213-son qarori ijrosi haqida” 343-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi 213-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining:

a) O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tuzilmasida 16 shtat birligidan iborat Fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o‘qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazini (keyingi o‘rinlarida -Markaz) tashkil etish;

b) professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchilarni kasb (mutaxassislik) va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarini (keyingi o‘rinlarda — o‘quv kurslari) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;Quyidagilar:

o‘quv kurslari tashkil etiladigan professional ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonlarini muvofiqlashtirish;

xorijiy ish beruvchilarning mehnat migratsiyasi sohasidagi ehtiyojlarini aniqlash va keng omma uchun ochiq eʼlon qilish;

xorijiy ish beruvchilarning kadrlarga boʻlgan ehtiyojlariga asosan professional taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan kasblar (mutaxassisliklar) hamda chet tillarini bilish darajasiga qoʻyilgan talablar boʻyicha buyurtmalarni shakllantirish;

xorijda ishlash istagi boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini ish beruvchilar tomonidan tanlab olish jarayonlarini tashkil etish;

oʻquv kurslari tashkil etiladigan professional taʼlim muassasalarini xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi, madaniyati va urf-odatlariga oid maʼlumotlar bilan taʼminlash;

professional taʼlim muassasalari va xorijiy ish beruvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni taʼminlash hamda xorijiy mutaxassislarni taʼlim jarayoniga jalb qilish;

kasbiy koʻnikmalar boʻyicha treninglar va seminarlar oʻtkazish hamda yoshlarning xorijiy kompaniya yoki tashkilotlarda amaliyot va stajirovkalar oʻtashini tashkil etish Markazning asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

Quyidagilar:

Kasb (mutaxassislik) va chet tillariga oʻqitish boʻyicha oʻquv kurslari tashkil etiladigan professional taʼlim muassasalari (keyingi oʻrinlarda - professional taʼlim muassasalari) roʻyxati 1-ildovaga muvofiq;

Professional taʼlim muassasalarida kasb (mutaxassislik) va chet tillariga oʻqitish boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish sxemasi 2-ildovaga muvofiq;

Professional taʼlim muassasalarida kasb (mutaxassislik) va chet tillariga oʻqitish boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari dasturi 3-ildovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Belgilab qoʻyilishicha:

a) oʻquv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi hujjat berilishi;

b) oʻquv kurslarida kadrlarni tayyorlash bir yilgacha boʻlgan taʼlim dasturlariga muvofiq toʻlov-kontrakt asosida amalga oshirilishi;

Bunda oʻquv kurslarining taʼlim dasturlari va oʻquv jarayoni muddatlari xorijiy ish beruvchilar takliflari asosida kasblar (mutaxassisliklar) murakkabligidan kelib chiqib, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanishi;

professional taʼlim muassasalarida taʼlim olayotgan oʻquvchilarni xam oʻquv kurslariga toʻlov-kontrakt asosida qabul qilishga ruxsat berilishi;

v) chet tillarini oʻrganish va xorijda ishlash istagida boʻlgan taʼlim oluvchilarni, xususan, yoshlarni oʻquv kurslariga qabul qilish Markaz tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan

buyurtmalar asosida tashkil etilishi;g) o'quv kurslari doirasida ta'lim oluvchilar ingliz, nemis, yapon, koreys, arab va boshqa talab yuqori bo'lgan chet tillariga o'qitilishi;

Bunda professional ta'lim muassasalarini chet tillariga o'qitish bo'yicha yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar institute hamda xududlardagi davlat pedagogika oliy ta'lim muassasalari rektorlari mas'ul va shaxsan javobgar hisoblanishi va ushbu vazifani amalga oshirish ular faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlaridan biri etib belgilanishi;

d) professional ta'lim muassasalariga xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda ta'lim dasturining tegishli qismlarini, shu jumladan, o'quvchilarning amaliyotini xorijiy hamkor tomonidan tavsiya etilgan muassasa va tashkilotlarda tashkil etishga ruxsat etilishi;

Belgilanishicha:

a) professional ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv adabiyotlari va o'qitish materiallari to'plamlarini chop etish hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar:

tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha- Sog'liqni saqlash vazirligi va professional ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan;

qurilish, transport, mehmonxona xo'jaligi va oshpazlik yo'nalishlari bo'yicha - Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Transport vazirligi hamda professional ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

b) professional ta'lim muassasalariga jalb qilinadigan pedagog xodimlarning ish haqi, shu jumladan, ularga ustama to'lash xarajatlari hamda o'qitish bilan bog'liq boshqa xarajatlar — ta'lim oluvchilarning to'lov-kontraktidan tushadigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi;

v) professional ta'lim muassasalarida kasb (mutaxassislik) va chet tillariga o'qitish bo'yicha o'quv kurslariga mashg'ulot o'tkazish uchun boshqa hududlardan kelgan yuqori malakali pedagog kadrlarning turar joy bilan bog'liq xarajatlari (mehmonxona yoki turar joy ijarasi) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shaxar mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplab berilishi;

g) professional ta'lim muassasalariga jalb etilgan ta'lim oluvchilar chet tilini mustaqil ravishda o'rganib, xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikatni taqdim etgan taqdirda, ta'lim oluvchi tomonidan chet tilini o'qish uchun sarflangan xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan oshmagan qismi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilishi;d) professional ta'lim muassasalariga xorijiy ish beruvchilarning mablag'lari hisobidan ta'lim oluvchilarni qo'shimcha (asosiy bo'lmagan) chet tillariga o'qitish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishga ruxsat etilishi;

e) o‘quv kurslariga jalb qilingan pedagog kadrlarga faoliyat samaradorligidan kelib chiqib, har oy oylik maoshining 100 foizigacha miqdorda ustama to‘lanishi;

Bunda pedagog kadrlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari xorijga ishlash uchun ketgan har bir ta‘lim oluvchi sonidan kelib chiqib belgilanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Professional ta‘lim muassasalarida kasb (mutaxassislik) va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Axmadjonov) professional ta‘lim muassasalarining ish bilan band bo‘lmagan bitiruvchilarini “Bandlik xizmati” axborot tizimiga kiritishni ta‘minlasin hamda ularni ishga joylashtirish choralari ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (SH.Kenjayeov) hamda “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov)ga tashkilot va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 29-iyuldagi
374-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Professional ta'lim muassasalarida kasb (mutaxassislik) va chet tillariga o'qitish bo'yicha
o'quv kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari**

DASTURI

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
I. Tashkiliy chora-tadbirlar				
1.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari va hududlardagi yoshlar o'rtasida chet tili va kasb-hunar o'rganish yuzasidan targ'ibot va tushuntirish ishlarini tashkil etish.	Targ'ibot dasturi	O'quv yili davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Yoshlar ishlari bo'limi, Tuman tibbiyot birlashmasi, Professional ta'lim muassasalari
II. Ta'lim jarayonini tashkil etish va nazorat qilish				
2.	Professional ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini tashkil etish.	O'quv jarayonida	Belgilangan muddatda	Professional ta'lim muassasalari
3.	Professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun o'qitish metodikalari, ta'lim dasturidagi yangiliklar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha trening mashg'ulotlarini tashkil etish.	Seminar treninglar	O'quv yili davomida	Professional ta'lim muassasalari
4.	Professional ta'lim muassasalariga xorijiy va mahalliy ish beruvchilarni biriktirish va ular o'rtasida hamkorlikni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024 yil sentabr	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi
5.	Professional ta'lim muassasalarining o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy axloqiy tarbiyasi hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	Chora-tadbirlar dasturi	2024 yil iyul	Yoshlar ishlari bo'limi, Professional ta'lim muassasalari
6.	O'quvchilarda ishga bo'lgan mas'uliyat, jamoada ishlash, boshqa millat va elatlarning qadriyatlarini hurmat qilish, o'z fikrini ravon bayon etish kabi ko'nikmalar (Soft skills) va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish.	Mashg'ulotlar	O'quv yili davomida	Professional ta'lim muassasalari
7.	O'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional ta'lim muassasalari va mos yo'nalishdagi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida amaliyot o'tkazish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish.	Shartnomalar	2024 yil iyun-iyul	Professional ta'lim muassasalari
8.	Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy imtihonlarini tashkil etish va davlat namunasidagi hujjatlarni rasmiylashtirish.	Me'yoriy hujjatlar	Ta'lim dasturi yakunida	Professional ta'lim muassasalari
9.	Xorijiy davlatlarga ishga joylashmay	Amaliy	Doimiy	Kambag'allikni qisqartirish va

	qolgan bitiruvchilar ro'yxatini shakllantirish va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish.	chora tadbirlar		bandlik bo'limi, Professional ta'lim muassasalari
--	---	-----------------	--	---